

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM TIZIMINING BARKAMOL SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI: "KELAJAK MARKAZI" KONSEPSIYASI ASOSIDA ILMIY-TAHLILY YONDASHUV

Qobilova Shaxnoza Nuritdin qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18492373>

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida maktabdan tashqari ta'lim tizimining barkamol shaxsni shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Xususan, O'zbekistonda "Barkamol avlod" muassasalarining "Kelajak markazi" konsepsiyasi asosida faoliyat yuritishi, uning huquqiy, tashkiliy va mazmuniy asoslari ochib berilgan. Tadqiqotda maktabdan tashqari ta'limning ixtiyoriylik, moslashuvchanlik va o'quvchi markazliligi kabi tamoyillari, STEAM-ta'lim yondashuvi hamda beshta muhim tashabbus doirasidagi faoliyatlarning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabdan tashqari ta'lim, barkamol shaxs, Kelajak markazi, STEAM-ta'lim, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy faollik.

Аннотация: В статье с научно-теоретических позиций анализируется роль системы внешкольного образования в формировании гармонично развитой личности в условиях глобализации и цифрового развития. Особое внимание уделено деятельности учреждений «Баркамол авлод», функционирующих на основе концепции «Центры будущего», а также их правовым, организационным и содержательным основам. Обоснована значимость принципов добровольности, гибкости и ориентации на обучающегося, внедрения STEAM-образования и реализации пяти важных инициатив.

Ключевые слова: внешкольное образование, гармонично развитая личность, центры будущего, STEAM-образование, воспитание молодежи, социальная активность

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of extracurricular education in forming a well-rounded personality in the context of globalization and digital development. Particular attention is given to the activities of "Barkamol Avlod" institutions operating under the "Future Centers" concept, as well as their legal, organizational, and content-based foundations. The study highlights the importance of voluntariness, flexibility, learner-centered approaches, the implementation of STEAM education, and the five key national initiatives.

Keywords: extracurricular education, well-rounded personality, Future Centers, STEAM education, youth development, social activity

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimiga qo'yiladigan asosiy talab – mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, raqobatbardosh va ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdir. Bu vazifaga erishishda faqat dars jarayoni emas, balki o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga xizmat qiluvchi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Avval "Barkamol avlod bolalar maktabi" sifatida tanilgan, hozirda esa "Kelajak markazi" konsepsiyasi asosida faoliyat yuritayotgan maskanlar bolalarning qiziqishi va qobiliyatini erta aniqlash, hamda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Natija va muhokama. Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki jamiyatda faol, mas'uliyatli, ijodkor va mustaqil fikrlaydigan

barkamol shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5712-son qarori bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da o'zaro uyg'un holda mustahkamlangan[1]. Mazkur huquqiy asoslar maktabdan tashqari ta'limni oddiy qo'shimcha mashg'ulotlar majmuasi emas, balki barkamol shaxsni shakllantirishda muhim va dolzarb tarbiyaviy tizim sifatida baholash imkonini beradi. Shu bois maktabdan tashqari ta'lim bugungi ta'lim siyosatida ustuvor masala ekanligi va sifatida qaralib, uning barkamol shaxs tarbiyasidagi o'rnii maslasi har ikki normativ hujjat maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirish alohida ahamiyatga ega ekani bildiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonlarida maktabdan tashqari ta'lim endilikda faqat o'quv dasturini to'ldiruvchi "qo'shimcha mashg'ulotlar" majmui sifatida emas, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi mustaqil va uzviy tarbiyaviy tizim sifatida talqin qilinmoqda..

Maktabdan tashqari ta'limning muhim xususiyatlari – ixtiyoriylik, moslashuvchanlik va o'quvchi markazliligidir[2]. Aynan shu jihatlar bolaning ichki ehtiyojlari va qiziqishlariga mos rivojlanishiga imkon yaratadi. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimida "Barkamol avlod" muassasalarining "Kelajak markazi" konsepsiyasi asosida faoliyat yuritishi mazkur tamoyillarning amaliy ifodasi bo'lib, bu jihat rivojlangan davlatlar ta'lim tajribasida shakllangan maktabdan tashqari ta'lim modellari bilan mushtaraklik kasb etadi[3]. Jumladan, Yevropa va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida maktabdan tashqari ta'lim bolalarning qiziqishlari va individual ehtiyojlariga mos dasturlar orqali tashkil etilib, rasmiy ta'limni shaxsiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasida erta kasbiy yo'naltirish, maktabdan tashqari ta'lim orqali amalga oshirilishi ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham "Kelajak markazi" faoliyati orqali bolalarning turli yo'nalishlarda o'zini sinab ko'rishiga sharoit yaratilayotgani ushbu xalqaro yondashuv bilan uyg'unligini o'zida aks ettirish bila bir qatorda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risidagi (PF-6108-son06. 11.2020-yil) farmonda ham o'z aksini topgan.

Mazkur jarayonlarning tizimli va barqaror amalga oshirilishi mamlakatimizda maktabdan tashqari ta'lim sohasining huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, Xalq ta'limi sohasidagi maktabdan tashqari ta'lim tizimining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish[4], shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori mazkur sohani rivojlantirishning strategik poydevorini belgilab berdi.

Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu normativ-huquqiy hujjatlar maktabdan tashqari ta'limni faqat tashkiliy faoliyat sifatida emas, balki yosh avlodni ma'naviy, intellektual va kasbiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik tizim sifatida shakllantirishni ko'zda tutadi. Xususan, yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish vazifasi zamonaviy jamiyatda shaxs tarbiyasining muhim ijtimoiy

ehtiyojiga javob beradi. Bu jarayonda robototexnika, mexatronika, injenerlik, mental arifmetika, san'at, art dizayn hamda axborot texnologiyalari, jumladan Java, Scratch va 3D dizayn yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishni oshirish orqali[5], o'quvchilarning texnologik tafakkuri va ijodiy salohiyati uyg'un rivojlantirish maslasi O'zbekiston taraqqiyot startegasining bosh bug'uni sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston sharoitida STEAM — ta'lim dasturining joriy etilishi va maktabdan tashqari ta'lim orqali tatbiq etilishi milliy ta'lim tizimining zamonaviy talablarga moslashuvini ta'minlagan bolsa, xorijiy tillarni o'rgatish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va sportga qiziqishni oshirishga qaratilgan faoliyatlar esa shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks xarakterini yanada kuchaytiradi. Ilg'or pedagogik usullar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi o'qitish shakllarining joriy etilishi ushbu tizimning innovatsion salohiyatini oshiradi. Ushbu rivojlanish jarayonining shiddali tus olishi, O'zbekistonda huquqiy va tashkiliy jihatdan izchil rivojlanib, jahon tajribasi bilan uyg'unlashgan holda yosh avlodni barkamol, ijtimoiy faol, ijodkor va kasbiy jihatdan raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'lishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi. *"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun*. 2020-yil 23-sentabr. O'RQ-637. — 3-4-moddalar. 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *"Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"* PQ-5712-son qaror. 2019-yil 29-aprel. — II-bob
2. Xolmatova M.A. Maktabdan tashqari ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlari. // *Pedagogika* jurnali. — Toshkent, 2020. — №3. — 41-46-b
3. Eccles J.S., Barber B.L. Student council, volunteering, basketball, or marching band: What kind of extracurricular involvement matters? // *Journal of Adolescent Research*. — 1999. — Vol. 14. — pp. 10-43.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Xalq deputatlari Boyovut tumani kengashining qo'shma qarori, 25.02.2021 yildagi 19/118-6-son
5. Umarov X. A. Texnologiya fanini o'qitishda maktab o'quvchilarining kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish usullari // *Innovations in Technology and Science Education*. — 2023. — T. 2. — №. 14. — С. 187-193.